

## ISLOM BANKLARINING GLOBAL ISLOM MOLIYA SANOATI TARKIBIDAGI ROLI: O'SISH, BARQARORLIK VA MINTAQAVIY DINAMIKALAR

**Norova Iroda Rustambek qizi**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*“Islom iqtisodiyoti va moliyasi” mutaxassisligi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada islom banklarining global islom moliya sanoatidagi strategik o'rni, moliyaviy barqarorligi va mintaqaviy rivojlanish dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqotda 2023-yil statistik ko'rsatkichlari asosida islom banklari aktivlari, moliyalashtirish va depozitlar portfeli, rentabellik va kapital yetarliligi kabi asosiy moliyaviy indikatorlar o'rganilgan. Maqolada, shuningdek, Fors ko'rfazi, Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq va boshqa mintaqalarda sektor faoliyatining xususiyatlari ochib berilib, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari yoritilgan. O'zkazilgan tahlillar natijalari asosida islom banklarining nafaqat shariatga muvofiqlik, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali moliya institutlari sifatida shakllanayotganligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** Islom banklari, islom moliya sanoati, moliyaviy barqarorlik, rentabellik, kapital yetarliligi, mintaqaviy tahlil, likvidlikni boshqarish, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

**Abstract.** This article is aimed at analyzing the strategic role of Islamic banks in the global Islamic finance industry, their financial stability, and regional development dynamics. The study examines key financial indicators of Islamic banks for the year 2023, including assets, financing and deposit portfolios, profitability, and capital adequacy. The article also explores the sector's specific features in the GCC, MENA, EAP and other regions, while highlighting current challenges and future prospects. Based on the conducted analysis, it is substantiated that Islamic banks are emerging not only as Shariah-compliant institutions but also as economically efficient financial entities.

**Key words.** Islamic banks, Islamic finance industry, financial stability, profitability, capital adequacy, regional analysis, liquidity management, macroeconomic indicators.

**Аннотация.** В данной статье проанализированы стратегическая роль исламских банков в глобальной исламской финансовой индустрии, их финансовая устойчивость и динамика регионального развития. В исследовании рассмотрены ключевые финансовые показатели исламских банков за 2023 год, включая активы, портфели финансирования и депозитов, рентабельность и достаточность капитала. Также в статье освещены особенности деятельности

сектора в странах Персидского залива, Восточной Азии, Ближнего Востока и других регионах, а также выявлены существующие проблемы и перспективы развития. На основе проведённого анализа обосновано, что исламские банки формируются не только как соответствующие требованиям шариата, но и как экономически эффективные финансовые институты.

**Ключевые слова.** Исламские банки, индустрия исламских финансов, финансовая устойчивость, рентабельность, достаточность капитала, региональный анализ, управление ликвидностью, макроэкономические показатели.

So‘nggi yillarda islom moliya tizimi global moliyaviy muhitda tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, islom bank sektorining jahon miqyosida ko‘rsatgan barqaror o‘shish sur‘atlari bu sohaning moliyaviy xizmatlar bozoridagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. 2023-moliyaviy yil yakunlariga ko‘ra global islom moliyaviy xizmatlari sanoati umumiy aktivlari hajmi 3,38 trillion AQSh dollariga yetdi va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4 foizlik yillik o‘shishni qayd etdi. Ta’kidlash joizki, ushbu ko‘rsatkich yuqori inflyatsion bosimlar, geosiyosiy tangliklar va an’anaviy bank sektoridagi beqarorlik kabi murakkab makroiqtisodiy sharoitlarga qaramasdan erishilgan natijadir. Islom bank sektori ushbu davrda jahon bo‘yicha umumiy islom moliya aktivlarining 70,21 foizini tashkil etib, sanoat tarkibidagi yetakchi segmentlik o‘rnini saqlab qolmoqda. Shu bilan birga, sukuk va islom investitsion fondlari birgalikda 29,08 foizni, Takaful sektori esa 0,71 foizni tashkil etdi. Shunga qaramay, islom bank sektorining global islom moliya tizimidagi o‘rni va ta’sir kuchi ilmiy nuqtai nazardan mahalliy tadqiqot ishlarida hali yetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Aksariyat tadqiqotlar alohida mamlakatlar yoki yirik banklar misolida amalga oshirilgan bo‘lib, xalqaro darajadagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida islom bank sektorining holatini kompleks yorituvchi ilmiy ishlarga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, tebranishga moyil inflyatsiya darajasi, valyuta kurslaridagi tebranishlar, likvidlikka doir cheklovlar va geosiyosiy tangliklar fonida sektorning qanday qilib o‘shishda davom etayotganini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Mintaqaviy taqsimot nuqtayi nazaridan, Fors ko‘rfazi hamkorlik kengashi (GCC) davlatlari global islom moliya bozorining eng katta ulushiga egaligini saqlab qolgan — ular umumiy aktivlarning 52,50 foizdan ortig‘ini tashkil etmoqda. Keyingi o‘rinlarni Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasi - 21,80%, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika (GCCdan tashqari) - 12,70%, Yevropa va Markaziy Osiyo - 8,30%, Janubiy Osiyo - 3,10%, Sahro osti Afrikasi - 0,70% va boshqa mintaqalar - 0,90% ko‘rsatkichlar bilan egallashmoqda.

Xususan islom bank sektorida kuzatilgan o‘zgarishlarni statistik jihatdan taxlil qiladigan bo‘lsak, ushbu segmentning 2023-yil davomida asosiy moliyaviy barqarorlik

ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli darajada barqarorligini saqlab qolganligini xulosa qilish mumkin. 2023-moliyaviy yilning to'rtinchi choragida islom bank aktivlari 7,21 foizga oshib, taxminan 2,37 trillion AQSh dollariga yetdi. Ushbu o'sish, asosan, depozit portfelining 7,92 foizga va Shariatga muvofiq moliyalashtirish portfelining 5,97 foizga oshganligi bilan izohlanadi.

Global miqyosda islom bank sektorining o'sishi jumladan ko'pchilik yurisdiksiyalarda mustahkam rentabellik ko'rsatkichlari orqali ham aks etdi. Sof foydaning oshishi xarajatlar va daromadlar nisbatining pasayishi yoki mo'tadillashuvi fonida kuzatildi, bu esa islom banklarining joriy moliyaviy davrda operatsion samaradorligining ortganligini ko'rsatadi. Foydalilik ko'rsatkichlarining oshishidagi asosiy omillardan biri - ko'plab mintaqalarda muammoli moliyalashtirish (non-performing financing – NPF) hajmi ko'rsatkichlarining pasayishi bo'ldi. Bundan tashqari, moliyalashtirish hajmining ayniqsa aholi, ko'chmas mulk, qurilish va ishlab chiqarish sohalarida oshishi sof foydaning o'sishi barqarorligini qo'llab-quvvatladi.

Kapital yetarliligi nuqtayi nazaridan, islom banklari barcha mintaqalarda amaldagi prudensial (nazorat) talablariga muvofiq yetarlicha barqaror kapital tuzilmasiga ega ekanliklari qayd etildi. O'rtacha kapital yetarliligi koeffitsiyenti<sup>1</sup> 19,10%, birinchi darajali kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti esa o'rtacha 17,83%ni tashkil etdi, bu esa islom banklarining operatsion faoliyatdagi moliyaviy barqarorligi va ehtimoliy zararlar va yo'qotishlarni qoplash salohiyatining yuqoriligini ko'rsatadi. Shuningdek, barcha mintaqalarda islom banklarining o'rtacha leveraj koeffitsienti<sup>2</sup> 3 foizlik minimal nazorat me'yoridan yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan.

Likvidlik ko'rsatkichlari bo'yicha me'yorlar ham aksariyat yurisdiksiyalar ostida faoliyat yuritayotgan islom banklari tomonidan ijobiy bajarildi. Sektor moliyaviy boshqaruvning konservativ strategiyalarini qo'llash, jumladan, yetarli darajadagi zaxiralarni shakllantirish, yuqori sifatli likvid aktivlarga investitsiya qilish va moliyalashtirish portfeli manbalarini diversifikatsiya qilish orqali qisqa va uzoq muddatli likvidlik pozitsiyalarini barqaror saqlab qoldi. E'tiborli jihati shundaki, ko'pchilik yillik hisobotlarni e'lon qiluvchi yurisdiksiyalarda likvidlikni qoplash ko'rsatkichi (Liquidity Coverage Ratio) va barqaror moliyalashtirish ko'rsatkichi (Net Stable Funding Ratio) doimiy ravishda 100 foizlik nazorat me'yoridan yuqori darajada saqlanib kelmoqda, bu esa sektorning bozor tebranishlariga bardosh berish salohiyatini ko'rsatadi. Shunga qaramasdan, bank segmentidagi ayrim muammolar, jumladan, likvidlikni boshqarishda islom moliyaviy instrumentlarning cheklanganligi islom banklari uchun jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda. Ko'plab islom banklari regulyatorlar tomonidan belgilangan talablarga javob berish uchun yuqori likvidli aktivlar tarkibida asosan naqd pulga tayanishga majbur bo'lmoqdalar. Bu holat shariat talablariga javob

<sup>1</sup> Kapital yetarliligi koeffitsiyenti (Capital Adequacy Ratio) - bankning jami riskka tortilgan aktivlariga nisbatan qanchalik regulyativ kapitalga ega ekanligini ko'rsatadigan indikator.

<sup>2</sup> Leveraj koeffitsiyenti - bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

beradigan investitsiya vositalari shakllarini kengaytirish hamda likvidlikni boshqarish bo'yicha islom moliyaviy instrumentlarini diversifikatsiya qilish zaruratini yana bir bor yuzaga chiqarmoqda.<sup>3</sup>

### 1-jadval.

#### Global islom bank sektorining aktivlar, moliyalashtirish va depozitlar portfeli hajmining 2018-2023-yillar oralig'ida yillik murakkab o'sish sur'atlari (%da)

| Global islom bank sektorining yillik murakkab o'sish sur'ati (%) |                             |                             |
|------------------------------------------------------------------|-----------------------------|-----------------------------|
| Ko'rsatkichlar                                                   | 2018-2023 yillar oralig'ida | 2022-2023 yillar oralig'ida |
| Aktivlar                                                         | 10,72%                      | 7,21%                       |
| Moliyalashtirish portfeli                                        | 9,89%                       | 7,92%                       |
| Depozitlar portfeli                                              | 8,76%                       | 5,97%                       |


1-jadval ma'lumotlariga asosan, jahon islom banki sektorining 2018-2023-yillar oralig'ida yillik murakkab o'sish sur'ati (Compound Annual Growth Rate-CAGR) aktivlar kesimida 10,72%, moliyalashtirish portfeli kesimida 9,89% va depozitlar portfeli kesimida 8,76%ni tashkil etgan. Jadvaldagi ko'rsatkichlar ko'rsatilgan davrlarning yakunlariga tegishli hisoblanib, jadvalning ikkinchi ustunida 2023-yil yakuniy natijalarining bazis davrga nisbati asosida bir yillik CAGR sur'ati keltirilgan. Bu ko'rsatkichlar oxirgi besh yillikda kuzatilgan inflyatsiya darajasining yuqori bosimi, makroiqtisodiy muammolar va jahon moliya bozorlariga ta'sir etayotgan geosiyosiy keskinliklarga qaramasdan islom banklarining barqaror faoliyat yuritayotganligini aks ettiradi. CAGR koeffitsiyenti hamda aktivlar, moliyalashtirish va depozitlar portfelining yillik o'sish sur'atlarini hisoblashda Islom moliyaviy xizmatlari kengashi (IMXK) tomonidan ishlab chiqilgan "Prudensial va strukturaviy islom moliyaviy ko'rsatkichlari"dan<sup>4</sup> foydalanilgan. Ma'lumotlar to'plami Afg'oniston, Bangladesh, Indoneziya, Qirg'iziston, Malayziya, Ummon, Pokiston, Saudiya Arabistoni va BAAdagi to'laqonli islom banklari va islom darchalarini, shuningdek, Bahrayn, Bruney, Iroq, Iordaniya, Quvayt, Livan, Liviya, Marokash, Nigeriya, Buyuk Britaniya, Falastin, Qatar va Turkiyadagi to'laqonli islom banklarini o'z ichiga oladi. Ma'lumot o'rnida, IMXK tomonidan ishlab chiqilgan ushbu standartlashtirilgan statistik baza makroprudensial nazoratni qo'llab-quvvatlash va islom moliya tizimi ishtirokchilarining kuchli va zaif tomonlarini baholash uchun global bilim bazasini yaratishga qaratilgan.

Islom banklari aktivlarining yillik o'sishi asosan shariatga muvofiq moliyaviy mahsulotlarga bo'lgan talabning ortishi, neft eksport qiluvchi mamlakatlardagi yuqori

<sup>3</sup> Islamic financial services stability report 2024, Islamic Financial Services Board

<sup>4</sup> Prudential and Structural Islamic Financial Indicators (PSIFIs), Islamic Financial Services Board, 2013

likvidlik darajasi, yangi islom banklari va darchalarining ochilishi, islom banklari birlashuvi hamda pandemiyadan keyingi davrda neftga aloqador bo'lmagan turizm va ishlab chiqarish kabi sohalarning tiklanishi bilan izohlanadi.



**1-rasm. Jahon islom bank aktivlarining 2022-2023-yillarda mintaqalar kesimidagi taqsimoti (mlrd. AQSh dollarida)<sup>5</sup>**

Garchi daromad keltirmaydigan turdagi omonatlar hajmi kamaygan bo'lsada (vadiya va qarz hasan kabi), mudoraba investitsion hisobvaraqlari bo'yicha mablag'larning 23,79%ga va boshqa turdagi daromad keltiruvchi omonatlar (vakala bil-istismar kabi) bo'yicha mablag'larning 16,91%ga o'sishi hisobiga mintaqada faoliyat olib borayotgan islom banklarining depozit portfelida o'sish qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkichlarning asosiy omili sifatida mintaqadagi makroiqtisodiy barqarorlik va ijobiy iqtisodiy prognozlar fonida omonatchilar xatti-harakatlariga ijobiy ta'sir etganligini taxmin qilish mumkin.

2022-yilning to'rtinchi chorak holatiga Sahroosti Afrikasi mintaqasida 13,67 mlrd AQSh dollariga teng bo'lgan jami aktivlar hajmi 2023-yil yakuniga kelib 13,36 mlrd AQSh dollarigacha kamayib, 2,25% pasayishni qayd etgan. Ushbu pasayish mahalliy valyuta qadrsizlanishi va muammoli moliyalashtirish portfeli hajmining oshishi bilan bog'liq. Umumiy depozit portfelidagi pasayish 2,64% ni tashkil etib, bu asosan

<sup>5</sup> IMXK kotibiyati tomonidan turli mintaqalardagi nazorat va tartibga soluvchi organlar rasmiy saytlaridan hamda islom banklari tomonidan e'lon qilingan yillik moliyaviy hisobotlar asosida "Prudensial va strukturaviy islom moliyaviy ko'rsatkichlari" statistik bazasini tayyorlash doirasida tayyorlangan ma'lumotlaridan foydalanildi.



mudoraba investitsiya hisobvaraqlarining 15,20%ga va boshqa turdagi daromad keltiruvchi omonatlar hajmining 0,07%ga kamaygani hisobiga sodir bo'lgan. Garchi daromad keltirmaydigan omonat turlari hajmi 5,75%ga oshgan bo'lsa ham, umumiy portfeldagi pasayishga o'z ta'sirini o'tkazmagan.

Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida esa 2023-yilning to'rtinchi choragida aktivlar hajmi bazis davrga nisbatan 2,78% ga oshgan. Ushbu o'sish xalqaro turizmning tiklanishi, aholi iste'molining faolligi va mo'tadil inflyatsiya darajasi bilan bog'liq. Banklar tomonidan turizm sohasiga va aholiga ajratilgan moliyalashtirish hajmining oshishi ish haqi sharoitlarining yaxshilanishiga va mehnat bozorida barqarorlik ta'minlanishiga imkon yaratgan. Shu boisdan, mintaqadagi umumiy islom banklari depozitlar portfelida ham mudoraba investitsion hisobvaraqlari hajmi 9,33%ga va daromad keltirmaydigan omonatlarning 9,84%ga ortishi hisobiga o'sish kuzatilgan. Garchi boshqa daromad keltiruvchi omonat hisobvaraqlari hajmi 1,41%ga kamaygan bo'lsada, bu umumiy o'sishga daxl qilmagan.

2023-yil to'rtinchi choragida Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida islom bank aktivlari hajmida 8,96%ga o'sish kuzatilgan. Ushbu natija iqtisodiy faollikning ortishi, mintaqada yangi islom banklarining tashkil etilishi, hamda yuqoridan pastga yo'naltirilgan tizimli qo'llab-quvvatlov choralarining kuchaytirilishi bilan bog'liq. Omonatlar hajmining oshishi mudoraba investitsion hisobvaraqlari kesimida 16,01%lik va boshqa turdagi daromad keltiruvchi omonatlar kesimida 2,49%lik o'sish bilan izohlanadi. Omonatlar portfeli tarkibidagi daromad keltirmaydigan omonatlar hajmi 0,84% ga kamaygan bo'lsada, portfel bazis davrga nisbatan umumiy holatda ijobiy o'zgarish qayd etgan, bu esa mintaqadagi bank sektorining investitsion salohiyatli mijozlari soni ortganligi ko'rsatadi.

Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasida (GCCdan tashqari) islom banklari aktivlari bazis davrga nisbatan 3,17% ga oshgan. Ahamiyatli jihati, mintaqadagi islom banklari aktivlarining o'sish tendensiyasi an'anaviy banklar bilan teng sur'atda kechgan. Mintaqadagi o'sishning umumiy va davriy solishtirma holatdagi tendensiyadan pastroq bo'lishi neft ishlab chiqarish hajmining kamayganligi, inflyatsiya darajasining oshishi, hamda ushbu hududdan neftni import qiluvchi davlatlarda tashqi savdo balansining buzilishi oqibatlari bilan izohlanadi. Biroq mintaqadagi ayrim mamlakatlarda milliy valyuta ekvivalentida ifodalangan aktivlarda sezilarli o'sish qayd etilgan. Shu bilan bir qatorda, ulgurji va aholi segmentlariga berilgan moliyalashtirish hajmi ortgan, omonatlar portfeli esa asosan mudoraba investitsion hisobvaraqlari va daromad keltirmaydigan omonatlar hajmidagi o'sish hisobiga ko'paygan.

Janubiy Osiyo mintaqasida ham islom banklari aktivlari bazis davrga nisbatan 1,40%ga oshgan, bu oldingi davrlarga nisbatan pastroq o'sish sur'ati hisoblanib, 2022-2023-moliyaviy yillarda kuzatilgan iqtisodiy inqiroz, xususan import cheklovlari,

energiya va xomashyo narxlarining o'sishi, hamda siyosiy beqarorlik kabi omillar bilan bog'liq. Shunday bo'lsada, 2022-yilning oxiriga yaqin mintaqadagi an'anaviy banklardan biri - Pokistondagi Faysal Bank Limited o'z faoliyatini an'anaviy bank tizimidan to'liq islom bank tizimiga transformatsiya qilishi hududda islom bank sektori aktivlarining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.<sup>6</sup> Bundan tashqari, yillik o'sish sur'atida qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va aholi segmentlariga ajratilgan moliyalashtirish hajmining oshishi ham muhim rol o'ynagan.

Yuqoridagi o'tkazilgan tahlillardan xulosa qilish mumkinki, islom banklari umumiy aktivlari, moliyalashtirish va depozit portfeli kesimidagi ijobiy o'sishlar, rentabellikning oshishi va prudensial ko'rsatkichlarning me'yorlardan yuqori bo'lishi islom banklarining nafaqat shariatga muvofiq, balki iqtisodiy jihatdan samarali moliyaviy institutlar ekanligini ko'rsatadi. Xususan, GCC davlatlari, Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo mintaqalarida sektor faoliyatining ijobiy dinamikasi kuzatilgan. Biroq, likvidlikni boshqarishda shariatga mos moliyaviy instrumentlarning cheklanganligi, ayrim mintaqalarda valyuta xavfi va siyosiy noaniqliklar mavjudligi kabi muammolar islom banklari oldida turuvchi dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham, sektorni yanada rivojlantirish uchun innovatsion moliyaviy mahsulotlar yaratish, investitsiya vositalarini diversifikatsiya qilish, va xalqaro moliyaviy standartlarga muvofiqlikni ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, islom banklarining global moliyaviy tizimdagi strategik ahamiyati ortib borayotgan bir davrda, ularning faoliyatini chuqur tahlil qilish va ilmiy asosda baholash nafaqat nazariy, balki amaliy nuqtai nazardan ham nihoyatda muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Islamic Financial Services Board. (2024). Islamic Financial Services Industry Stability Report 2024. Kuala Lumpur: IFSB.
2. Islamic Financial Services Board. (2013). Prudential and Structural Islamic Financial Indicators (PSIFIs). Kuala Lumpur: IFSB.
3. Pakistan Today. (2022, January 20). Faysal Bank branches now 100% Islamic; awarded Islamic banking license. Pakistan Today.
4. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI). (2017). Shari'ah standards (2nd ed.). Manama, Bahrain: AAOIFI.

<sup>6</sup> "Faysal Bank branches now 100% Islamic; awarded Islamic Banking license", [www.pakistantoday.com](http://www.pakistantoday.com)